

## O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI – BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRUVCHI VOSITA

D.Nuritdinova

BuxDUPI Ta’lim va tarbiya

nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi magistranti

D. B. Axmedova –

BuxDU doktoranti (DSc), f.f.f.d. (PhD)

### **Annotatsiya:**

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy faolligi, izlanuvchanligi, xotirasining yaxshilanishi, topqirligi, ziyrakligi, ilg‘orligi va xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lmish qo‘shiqlarga bo‘lgan qiziqishi va muhabbatini orttirish borasidagi fikr-mulohazalar yoritilgan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** darslik, mehnat, his-tuyg‘u, kechinmalar, ustoz, tahlil, nutqiy faollik, o‘quvchi, xotira, tafakkur, qo‘shiq.

Inson kayfiyati hayotdagi vaziyatlar ta’sirida o‘zgarib turadi, ya’ni ob-havo, ona tabiatdagi fasl o‘zgarishlari, oiladagi munosabatlar, do‘stlarning totuvligi, hatto, notanish odamning bir og‘iz so‘zi sizning kayfiyatingizni ko‘taradi yoki tushiradi. Xursand bo‘lgan paytingizda sho‘x qo‘shiq aytgingiz, raqsga tushingiz keladi. Noxush damlarda ko‘proq jim turib xayol surishni ma’qul ko‘rasiz. Bunday daqiqalarda mungli kuy ham sizga tasalli beradi, og‘iringizni bir oz bo‘lsa-da yengil qilganday bo‘ladi. Ana shunday holat bizning qalbimizda lirik kechinmalarning paydo bo‘lishi uchun zamin tayyorlaydi: qo‘shiq yaratishga sabab bo‘ladi.

Xalq og‘zaki ijodidagi qo‘shiqlar lirik asarlar bo‘lib, ularda insonning ichki his-tuyg‘ulari, kechinmalari aks etadi. Qo‘shiq Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» (1074) asarida, «qo‘shug‘» shaklida uchraydi va she’r, qasida (biror kimsa yoki narsaga atalgan she’r) ma’nosini anglatadi.

Qadim zamonlarda «shlok», «takshut», «ir» (yir), «kug» kabi atamalarning ham nazm, she’r, ya’ni ma’lum darajada qo‘shiq janriga aloqasi bo‘lgan.

Haqiqatan ham qo‘shiq janri uzoq tarixga ega. Barcha yosh-u qari qo‘shiqlarni birdek yaxshi ko‘rib eshitishadi, yodlashadi, hattoki yurgan yo‘llarida xirgoyi ham qilib yurishadi. Shuning uchun ham biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qo‘shiqlarga bo‘lgan qiziqishini oshirishimiz ancha oson bo‘ladi. Qo‘shiq bilmaydigan bolaning o‘zi bo‘lmasa kerak.

Boshlang‘ich sinf darsliklaridan turli xalq qo‘shiqlari o‘rin olgan.

2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligining 85-betida “Kulcha” qo‘shig‘i matni berilmagan, ammo audio orqali tinglash kerakligi aytilgan. **“Oyijon” qo‘shig‘i** (2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi 2-qism 85-bet)

Oyijon,	oyijon-a	Oyijon,	oyijon-a,
Quloqqinam	og‘ridi-ya,	Bilakkinam	og‘ridi-ya,
Quloqqinangdan	oying o‘rgilsin,	Bilakkinangdan	oying o‘rgilsin,
Nimalarga	og‘ridi-ya.	Nimalarga	og‘ridi-ya.
Do‘konlarda	bo‘lar emish,	Zargarlarda	bo‘lar ekan.
Bozorlarda	sotar emish,	Do‘konlarda	sotar ekan,
Ana uning nomi	tilla zirak	Uning nomi	bilakuzuk
O‘shanga	og‘ridi-ya,	O‘shanga	og‘ridi-ya.
O‘shanga og‘risa-yo,	alam-o, alam.	O‘shanga og‘risa-yo,	alam-o, alam.

Keltirilgan qo‘shiqda oyi hamda qizining kechinmalari berilgan. Bunda qizining bilagi, qulog‘i og‘rishi sabablari chiroyli qilib dalillangan hamda bu qo‘shiq orqali bolalarni sabrli bo‘lishga undalgan, ayniqsa, qiz bolalardagi kiyim-kechak va taqinchoqlarga o‘chlik tanqid qilinib, undan qutulishga chorlangan.

**“Chittigul” qo‘shig‘i** (3-sinf “O‘qish” kitobi, 129-bet)

Chittigul-e chittigul,	Ha-yu, chittigul,
Etagingga gul bosay,	Ha-yu, chittigul.
Ha-yu,, chittigul,	Arobada un keldi,
Ha-yu, chittigul.	Childirmada gul keldi.
Qo‘ling qo‘lbog‘da bo‘lsin,	Ha-yu, chittigul,
Beling belbog‘da bo‘lsin.	Ha-yu, chittigul.
Ha-yu, chittigul,	O‘rtada o‘ynagan qizning
Ha-yu, chittigul.	Haydar kokili yaxshi.
Tapir-tupur ot keldi,	Ha-yu, chittigul,
Chiqib qarang kim keldi?	Ha-yu, chittigul.

Bu qo‘shiq bolalar ijodiga xos bo‘lib, kichik yoshdagi qizaloqlar bu qo‘shiqni maroq bilan kuylaydilar. Sodda tuzilganligi uchun ham uni yodlash oson, so‘zlar soni ham nisbatan kam va qaytariqlar asosiy o‘rin egallagan.

**“Boychechak” qo‘shig‘i** (4-sinf “O‘qish” kitobi, 95-bet)

Boychechagim boylandi,	Baxmal bilan topdilar.
Qozon to‘la ayrondir.	Qattiq yerdan qatalab chiqqan
Ayroningdan bermasang,	boychechak,
Qozon-tovog‘ing vayrondir.	Yumshoq yerdan yumalab chiqqan
	boychechak.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan Boychechagim boylandi,  
 boychechak, Ko'chama-ko'cha aylandi.  
 Yumshoq yerdan yumalab chiqqan Boychechagim ko'k somsa,  
 boychechak. Cho'ntaklarga joylandi.  
 Boychechakni tutdilar, Qattiq yerdan qatalab chiqqan  
 Tut yog'ochga osdilar. boychechak,  
 Qilich bilan chopdilar, Yumshoq yerdan yumalab chiqqan  
 boychechak.

Bu qo'shiq mavsumiy marosim qo'shig'i sanalib, bolalar tomonidan kuylanadi. Bu qo'shiqni bolalar dala va bog'lardan boychechak terib o'ynab-kulib kuylab yurganlar. Tili soda, bolalarga xos. Bolalarning biri bu qo'shiqning to'rtligini kuylaydi, qolganlari esa naqaratini jo'r bo'lib kuylaydilar. Bu qo'shiqda ko'klamga xos tabiat hodisalari hamda xalqimizning an'analari zavq bilan tarannum etilgan.

Ko'rib turganimizdek, bolalar hayotida qo'shiqlarning roli katta ahamiyat kasb etadi. Xalq qo'shiqlari har bir xalqning iqlimiga, urf-odatiga, marosimlariga mos tarzda ijro etilgan. Bu xildagi qo'shiqlar o'tmishimizni, uzoq ajdodlarimizning turmush tarzini, dunyoqarashini hamda orzu-istaklarini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qo'shiqlar o'quvchilarning tarbiyasiga, dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi, milliy urf-odatlarini sevishga, qadriyatlarini qadrlashga, aqliy rivojlanishiga, nutqiy faoliyatiga beqiyos yordam beradi. O'zbek xalq qo'shiqlari juda qadimiy tarixga ega bo'lib, ular dastlab mehnat jarayonida vujudga kelgan. Xalq qo'shiqlarida xalqimizning orzu-umidlari, ichki kechinmalari, zavq-shavqi, faoliyatlari, quvonchlari-yu iztiroblari mujassamlashgan. Xalq qo'shiqlari barchamizning ko'nglimizga birdek yoqadi hamda sevib o'rganishimiz, ijro qilishimiz uchun munosib namunalardir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 140-144.
2. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. О 'QUVCHILAR О 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 306-309.
3. Axmadovich X. X. et al. ENG QADIMGI MA'RIFIY YODGORLIKLARNI O'RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 281-285.



4. Ҳайитов Х. А. ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ ХАЛҚ ЛАТИФАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 679-687.
5. Akhmadovich H. H. Khoja nasriddin afandi as people's hero //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 1562-1565.
6. Akhmadovich K. K. Symbolism of Birds in Uzbek Literature //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 4. – С. 59-63.
7. Hayitov H. A. Sharq mumtoz adabiyotida ohang talqini //Мировая наука. – 2019. – №. 8. – С. 3-5.
8. Hayitov H. A. Literary influence and artistic image //Экономика и социум. – 2019. – №. 8. – С. 11-14.
9. Ahmadovich H. H., Amrulloeyevna S. D. XX ASR QISSACHILIGI TARAQQIYOTIDA FOLKLORNING LATIFA JANRI TA'SIRI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 302-304.
10. Jumayev, Ruzokul. "Sadriiddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
11. Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АРАБЧА ТОПОНИМЛАР." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
12. Xoliqulovich J. R. SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliqulovich Vuxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 34-37..
13. Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Using anthropometric units in "Esdaliklar" by Sadriiddin Ayniy." European Journal Of Innovation In Nonformal Education 2.2 (2022): 295-298.
14. Jumayev, Ruzokul. "SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA OYKONIM TURLARINING QO'SHILISHI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 7.7 (2021).
15. Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2021).
16. Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Influence of Sadriiddin Aini life and works in spiritual and moral development of students." Middle European Scientific Bulletin 11 (2021).
17. Jumayev, Ruzokul. "Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2020).
18. NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin

19. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545